



ETIKA
QO'LLANMASI

BIZNING KOMPANIYAMIZ IQTISODIY MOBILLASHADI



**Estelle
Brachlianoff,**
Veolianing
bosh direktori

Veolia guruhi qayerda tashkil etilishidan qat'iy nazar, u 2019 yil 18-aprelda qabul qilingan o'z maqsadiga muvofiq holda o'ziga xos qadriyatlar, har bir davlatga xos qonunchilik va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'rnatilgan etika qoidalarini targ'ib qilishga intiladi, shuningdek, ularga rioya qilishni rag'batlantiradi.

Jug'rofiy kontekstdan qat'iy nazar, iqtisodiy va moliyaviy vaziyatdan qat'iy nazar, bizning vazifalarimiz va kasbimiz

milliy va xalqaro qoidalarga tayangan holda, shuningdek xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga muvofiq, xususan, asosiy tamoyillarga hurmat ila rioya qilgan ravishda, madaniy xilma-xillikni saqlagan holda va atrof muhitni muhofazasi bilan bog'liq holda amalga oshirilishi kerak

Ushbu hujjat kompaniyaning barcha darajalaridagi, hamda u mavjud bo'lgan barcha mamlakatlardagi hamma Veolia xodimlari uchun xulq-atvor namunasini ifodalaydi. Chunki o'z biznesimizni professionallar sifatida olib borish, mijozlarimizni hurmat qilish va barcha mas'uliyatni o'z zimmamizga olish oddiygina ishimizni to'g'ri bajarishdan iboratdir.

**« USHBU HUJJAT BARCHA
VEOLIA XODIMLARI
UCHUN ETIKA QO'LLANMASI
HISOBLANADI. »**

MUNDARIJA:

4. MAQSADIMIZ
6. QADIRIYATLARIMIZ
8. ETIKA QOIDALARIMIZ
12. HARAKATLARIMIZ
20. TASHKILOTIMIZ

NIZOM

Ushbu Etika qo'llanmasi Veolia uchun muhim ahamiyatga ega. Guruh ushbu vosita orqali o'z maqsadlariga muvofiq o'zining qadriyatlarini ham o'zida, ham manfaatdor tomonlarga targ'ib qilishni istaydi.

Guruhning qadriyatlari uning xulq-atvor qoidalarida ham, xatti-harakatlarida ham ifodalanganligi sababli, mavzu Veolia o'z boshqaruvining asosiga aylantiradigan kundalik etika uchun shart-sharoitlarni yaratish masalasidir. Veolia etik sub'ekt bo'lib, u javobgarlikka tortilishi kerak va u e'lon qilingan qadriyatlarini uning kompaniya sifatida qonunga buyso'nishini hisobga olishga yordam beradi.

Etika qo'llanmasi Veolianing o'z doirasida targ'ib qilmoqchi bo'lgan qadriyatlarni taqdim etish orqali, etik xulq-atvorining belgisi va mezoni hisoblanadi. Ushbu qo'llanma xulq-atvorni boshqarish va kompaniya ichida birlashish vositasi xisoblanib, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan ishonch munosabatlarini o'rnatishga qaratilgan. Etika xulq-atvor qoidalari va ulardan kelib chiqadigan harakatlar kabi qadriyatlar, huquqiy va obro'-e'tibor xavflarining oldini olishga qaratilgan umumiy muvofiqlik talabining bir qismidir va har qanday kompaniyada bo'lgani kabi Veolia uchun ham asosiy strategik maqsad hisoblanadi.

Veolia suv, tozalik, energiya sohalarida va rivojlanish muammolarining markazida bo'lgan sohalarda ishlaydi.

O'z biznesining markazida atrof-muhitni muxofaza qilish xizmatlari mavjudligi sababli, Veolia atrof-muhitni saqlashda, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishda, tabiiy resurslarni tejamkorlik bilan boshqarishda,

iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda, ifloslanishni kamaytirishda, biologik xilma-xillikni saqlash va rivojlantirishda, aholi salomatligi va farovonligini oshirishda raqobatni o'rnatishni doimiytaraqqiyot dinamikasining bir qismi deb biladi. Veolia bosh ofisi Fransiyada joylashgan bo'lib, o'z faoliyatini ko'plab mamlakatlarda olib boradigan guruh sifatida, o'z mas'uliyatini bilgan holda, o'z xodimlari, shuningdek, quyida keltirilgan qadriyatlar va xulq-atvor qoidalariga hurmatni ta'minlashga intiladi. Shu bilan birga u ushbu qadriyatlarni boshqa manfaatdor tomonlarga, xususan, mijozlariga, yetkazib beruvchilariga va faoliyati amalga oshirilayotgan hududlar aholisiga targ'ib qiladi.

Veolia kompaniyasini boshqarishda etika (axloq) qoidalarini birlashtirgan ushbu qo'llanma quyidagilarga rioya qilishga qaratilgan :

1. Veoliaga xos qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari ;
2. Guruh rioya qiladigan xalqaro tashabbuslar, xususan, BMT Global Shartnomasi, xalqaro inson huquqlari qonuni va OECDning transmilliy kompaniyalar uchun ko'rsatmalari ;
3. Guruh faoliyat yuritayotgan barcha mamlakatlardagi mahalliy qonunchilik.

Murakkab, ko'p madaniyatli va rivojlanayotgan dunyoda umumiy etika asoslarini yo'lga qo'yadigan ushbu qo'llanma barcha xodimlar uchun mezondir. Bu ularga ushbu qadriyatlarining kafilari bo'lishlari va o'z huquqlarini, shuningdek, kompaniya va uning manfaatdor tomonlari oldidagi burchlarini to'liq anglagan holda o'z vazifalarini bajarishlariga imkon berishi kerak.



BIZNING MAVJUDLIGIMIZDAN MAQSADIMIZ

Veolia tashkil etilishidan maqsad - u o'z oldiga barcha talabdor tomonlarga xizmat ko'rsatish majburiyatiga sodiq qolishdir. 2019-yil 18-aprelda Guruh direktorlar kengashi tomonidan qabul qilingan bu maqsad shunchaki shior emas, balki u butun bir matnda ifodalangan.

Veolianing mavjudligidan maqsadi - barcha uchun yaxshiroq va barqaror kelajakka erishish uchun BMT tomonidan belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga qat'iy rioya qilish orqali insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir. Aynan shularni hisobga olib, Veolia o'z oldiga : «Atrof-muhitni nuxofaza qilishga xizmat ko'rsatish» g'oyasini amalga oshirish orqali «dunyoni resurslar bilan ta'minlashni» vazifa qilib qo'ygan.

Veolia kompaniyasida biz shunga aminmizki, insoniyatning uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni ajralmas bir butun

muammo sifatida hal etilgan taqdirdagina erishish mumkindir. Bu ishonch kompaniya tarixining bir qismidir. U 1853 yilda tashkil etilganidan beri ichimlik suvidan foydalanishni aholi salomatligi va hayot sifati uchun muhim vositaga aylantirish yo'lini ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda suv, chiqindilar va energiya sohasidagi faoliyatimizni amalga oshirib turib, biz butun dunyo bo'ylab davlat korxonalari va xususiy mijozlarimizga muhim xizmatlar ko'rsatamiz va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ularni saqlash va qayta ishlashni osonlashtiradigan yechimlarni taqdim etamiz.

BIZNING MAVJUDLIGIMIZDAN MAQSADIMIZ

Bizning va mijozlarimizning ekologik izlarini yaxshilash bizning biznesimiz va iqtisodiy modelimizning markazidir. Atrof-muhitga va mijozlarimizga yaxsh ta'sir ko'rsatish biznesimiz va iqtisodiy modelimizning asosini tashkil etadi.

Biz bir vaqtning o'zida ham mahalliy, hamda global korxonaga bo'lib, yuqori intensiv texnika, nou-xau, mehnatda va o'z harakatlarida uzoqni ko'zlashga e'tibor qaratadigan kompaniyamiz. Biz ko'p yillik tajribamiz, xizmatlarimiz sifati va innovatsiyalarga qaratilgan kuchli salohiyatimiz tufayli mijozlarimizga uzoq muddatli natijalarni kafolatlaymiz.

Biz shunday bir jamiyatimizki, unda har bir ishchi daromad topa olishi, ish joyidagi salomatligini va xavfsizligini ta'minlanishidan tashqari, o'z ishining ma'nosini bilgan holda, foydali jamoaviy yondashuv va shaxsiy rivojlanish istagini amalga oshira oladi.

Ta'lim berish orqali Veolia o'z xodimlarining malakasini oshirishni ta'minlaydi. Xodimlarning aksariyati ishchilar va texnik xodimlardir. Kompaniya barcha darajalarda (lavozimlarda) va barcha mamlakatlarda ularning mas'uliyati va avtonomiyasiga (mustaqilligiga) tayanadi, hamda erkaklar va ayollar o'rtasidagi professional tenglikni ta'minlaydi.

Veolia, xususan, xodimlarning vakillik organlari doirasida ijtimoiy muloqotni targ'ib qiladi, bu esa xodimlarning jamoaviy loyihalashga jalb qilinishiga yordam beradi.

Veolia hamma joyda amaldagi qonun va qoidalarni hurmat qiladi. Shuningdek, u mas'uliyat, birdamlik, o'zaro hurmat, yangilikka intilish va mijozlarga xizmat ko'rsatish qadriyatlariga mos keladigan keng tarqalgan etika qoidalarini qo'llaydi. Veolia farovonligi uning barcha manfaatdor tomonlari - mijozlar, aktsiyadorlar, xodimlar, yetkazib beruvchilar, hozirgi aholi va kelajak avlodlar uchundir.

U faoliyat yuritadigan turli hududlarda foydalliligiga asoslanadi. Shuning uchun samaradorlikni ushbu turli auditoriyalarga mos keladigan bir nechta o'lchovlar bo'yicha baholaydi. Kompaniya ushbu o'lchamlarning har biriga bir xil darajada talab va e'tibor beradi.

Veolia insoniyatning hayotiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish orqali kelajakka tayyorlanmoqda.

AMALGA OSHIRISH USULLARI

Veolianing mavjudlik maqsadi barcha manfaatdor tomonlarga ma'lum bo'lib, ular bu maqsadning ma'nosini bilishlari va uni samarali amalga oshirishda ishtirok etishlari mumkin.

Ushbu mavjudlik maqsadini inobatga oladigan direktorlar kengashi, uning bajarilishini baholaydi.

Veolia har yili o'zining ko'p qirrali ishlari haqida o'z modelining barqarorligi bo'yicha tegishli ko'rsatkichlarni jamlagan o'lchamlar paneli orqali hisobot beradi. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagilarni baholashga imkon beradi :

- iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar ;
- atrof-muhit ko'rsatkichlari ;
- ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlari ;
- mijozlar ehtiyojini qondirish nuqta nazaridan ishlash ;
- etika va muvofiqlik bo'yicha samaradorlik.

Ushbu ko'rsatkichlarni tanlash, har bir yangi strategik bosqichni loyihalashda uning maqsadlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Fuqarolik jamiyati ekspertlari hamda mijozlar, yetkazib beruvchilar, xodimlar va kelajak avlod vakillaridan iborat manfaatdor tomonlar qo'mitasi kompaniya rahbariyatiga o'z maqsadini to'g'ri bajarish bo'yicha maslahatlar beradi.



BIZNING QADRIYATLARIMIZ

Veolianing asosiy qadriyatlari mas'uliyat, birdamlik, o'zaro hurmat, innovatsiyalar va mijozlarning ehtiyojlariga e'tibor berishdan iborat bo'lib, bu uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlari asosini tashkil qiladi.

MAS'ULIYAT

Tashqi tomondan, Veolia ekologik transformatsiyaning bir qismi sifatida barqaror rivojlanishga sodiq jamiyat qurishda faol ishtirok etishni maqsad qilgan. Atrof-muhitni muxofaza qilish sektorining asosiy sub'ekti sifatida, Guruh umumiy manfaatlar uchun kunlik bir-nechta mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi, xususan :

- hududlarning uyg'un rivojlanishi ;
- faoliyatidan zarar ko'rgan aholining turmush sharoitini yaxshilash va atrof-muhitni asrash uning faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bu borada, Veolia professional ko'nikmalarni rivojlantirish, inson xavfsizlik sharoitlarini yaxshilash (ishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish), ish joyidagi salomatlik, shuningdek, guruh boshqaradigan barcha xodimlar va ob'ektlar xavfsizligini ta'minlashga intiladi.

Kompaniyaning o'z xodimlari oldidagi mas'uliyati evaziga, Veolia har bir kishidan kompaniyaga to'liq sodiqlikni, uning qadriyatlarini va ushbu qo'llanmadagi etika xatti-harakatlar qoidalariga hurmat qilib rioya qilishini kutadi.

« HUDUDLARGA, AHOLILARGA VA XODIMLARGA NISBATAN YUZMA-YUZ JAVOBGARLIK. »

Veolianing faoliyati barcha asosiy muammolar bo'yicha doimiy taraqqiyot dinamikasining bir qismi deb ifodalanadi.

BIRDAMLIK

«Dunyoni resurslar bilan ta'minlash» missiyasiga ega bo'lgan va faoliyatlar jamoaviy va umumiy manfaatlariga xizmat qiladigan Veolia kompaniyasida bu qadriyat barcha manfaatdor tomonlar bilan o'rnatilgan munosabatlarga tegishli bo'lib, Guruh undan kutilgan natijalarni ta'minlashga intiladi. Bu, xususan, Guruh har bir kishi uchun asosiy xizmatlarni taqdim etish bo'yicha yechimlarni izlashni o'zining ijtimoiy mas'uliyatlaridan biri deb hisoblaydi.

HURMAT

u qadriyat Guruhdagi har bir kishining individual xulq-atvorini boshqaradi va qonunchilikni hurmat qilish, Guruhning ichki qoidalari va boshqalarga ko'rsatilgan hurmatda namoyon bo'ladi. Bu ayniqsa kasbiy tenglik va xodimlarning qadr-qimmatini ta'minlash, xilma-xillikni hurmat qilish va boshqalarga bo'lgan g'amxo'rlik orqali ularni jalb qilish ishlarini ifodalanadi.

Qonunga hurmat - Veolia odob-axloq va halollikning etika tamoyillariga qanchalik ahamiyat berishini kuchli eslatib turadi.

Ular bizning qonunchiligimizda, aksariyat xorijiy qonunlarda bo'lgani kabi, korrupsiya jinoyatini taqiqlashni ham belgilab qo'ygan.

INNOVATSIYA

Veolia o'z mijozlariga, atrof-muhit va jamiyatga xizmat ko'rsatish uchun barqaror yechimlarni ishlab chiqish strategiyasining markaziga tadqiqot va innovatsiyalarni qo'ydi. Innovatsiyalar Guruhga o'z xizmatlarining samaradorligi va sifatini oshirishga intilish imkonini beradi.

MIJozLAR EHTIYOJI

Veolia shaffoflik va axloq qoidalarini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa o'z mijozlari bilan halollik, o'zaro hurmat va kamsitilmaslikka asoslangan mustahkam ishonch munosabatlarini o'rnatish imkonini beradi. Veolia o'z mijozlarini tinglaydi va ularga moslashtirilgan va innovatsion yechimlarni taqdim etish orqali ularning texnik, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy talablarini qondiradi.



BIZNING BOSHQARISH QOIDALARIMIZ

Veolia o'z faoliyatini amalga oshirishda kompaniyaning barcha xodimlariga va barcha darajalariga nisbatan qo'llaniladigan qoidalarni aniqladi.

QONUNLAR VA NIZOMLARGA HURMAT BILAN RIOYA QILISH

Veolia uchun muvofiqlik muhim talabdir. Bu kompaniyaga tegishli xalqaro, Yevropa va milliy standartlarga rioya qilish orqali huquqiy xavflarni aniqlash imkonini beruvchi organlar va tartiblarni yaratishga olib keladi.

Muvofiqlik faqatgina qonunlar, cheklovlar bilan cheklanib qolmaydi, balki kompaniyani boshqarish va ichki rivojlantirish vositasiga aylanadi. Hisobdorlik omili sifatida u o'z a'zolarining talablarga bo'lgan hurmatni qadriyatga

aylantiradigan muvofiqlik madaniyati atrofida hamjihatligini mustahkamlaydi. Bunga erishish uchun, Guruh o'z xodimlarini amaldagi qonunlar va qoidalarga rioya qilish bo'yicha xabardorligini oshiradi

YURIDIK HAMDA XUSUSIY MANSABDOR SHAXSLARNING KORUPSIYASIGA QARSHI VA ULARNING O'Z VAKOLATI ORQALI TA'SIR KO'RSATISHIGA QARSHI KURASH

Veolia Guruhi faoliyat yuritayotgan barcha mamlakatlarda korruptsiyaga qarshi

BIZNING BOSHQARISH QOIDALARIMIZ

« MUVOFIQLIK – ASOSIY TALAB »

kurashmoqchi. Bu kurash o'z navbatida xabardorlikni oshirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu kurash Guruh xodimlarining Veolia bo'ysunadigan qoidalarga, xususan, 2016 yil 9 dekabrda Sapin II deb nomlanuvchi qonuniga muntazam rioya qilishiga chorlaydi.

Yuqorida aytib o'tilgan qonunda nazarda tutilgan etika kodeksi, korruptsiya xatti-harakatlarini tavsiflash yoki mansabdan foydalanish orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar turlarini belgilaydi va ko'rsatadi.

Sapin II qonunida ko'zda tutilgan *«xodimlardan va kompaniyaning xulq-atvor kodeksiga zid bo'lgan xatti-harakatlar yoki holatlar mavjudligi bilan bog'liq hisobotlarni to'plash uchun mo'ljallangan»* ichki ogohlantirish tizimi ta'riflanganidek, Veolia umumiy etika ogohlantirish tizimiga quyida *«Guruh qadriyatlari va etika xulq-atvor qoidalarini amalga oshirish»* bo'limida birlashtirilgan.

Ushbu ogohlantirish tizimidan uchinchi shaxslar ham foydalanishlari mumkin.

MANFAATLAR MUAMMOSINI OLDINI OLISH

Xodimlar o'zlarining shaxsiy manfaatlari va Guruh manfaatlari o'rtasida haqiqiy yoki aniq ziddiyatni keltirib chiqaradigan, yoki yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatning oldini olishlari, yoki ogohlantirishlari lozim. Xodimning shaxsiy manfaati deganda o'zi yoki qarindoshlari, do'stlari, urug'lari, biznes yoki boshqa qarindoshlik aloqalari bo'lgan odamlar yoki tashkilotlar foydasiga har qanday imtiyozlarni o'z ichiga oladi. Manfaatlarni to'qnashuvi xodimga qaror qabul qilishda shaxsiy manfaatlari ta'sir ko'rsatishi va uning kasbiy majburiyatlari va javobgarligini xolis bajarishiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan hollarda yuzaga keladi.

BIZNING BOSHQARISH QOIDALARIMIZ

« HAR DAVLATDA, YOKI AYRIM GURUHLAR ORASIDA KORUPTSİYAGA QARSHI KURASH. »

Bu borada quyidagi holatlarga alohida e'tibor talab qilinadi : agar xodim yoki uning yaqin qarindoshlaridan biri davlat mansabdor shaxsidan, mijozdan, yetkazib beruvchidan, subpudratchidan, tijorat hamkoridan, yoki raqobatchidan imtiyozlar, shu jumladan sovg'alar va taklifnomalar olsa ; yoki agar xodim o'z qarindoshlaridan biriga bunday imtiyozni taqdim etsa ; agar u Guruh ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatgan yoki raqobatda bo'lgan kompaniya yoki tashkilotda bevosita yoki bilvosita ulush, mandat yoki shaxsiy moliyaviy manfaatlariga ega bo'lsa ; agar u bunday kompaniya yoki tashkilot bilan tashqi faoliyatga ega bo'lsa. Agar xodimda ushbu holatlardan biri bo'yicha savollar bo'lsa, ular bunday holatlarning oldini olish va Guruh manfaatlarini kafolatlash uchun tegishli qarorlarni qabul qiladigan rahbarlari bilan maslahatlashishlari kerak.

Veolia korruptsiyaga qarshi kurashga bergan ahamiyati uni korruptsiyaga qarshi yagona ilovani ushbu Etika qo'llanmasiga aylantirishga olib keldi.

BUXG'ALTERIYA XISOBI VA MOLIYA MASSALARIDA ETIKA MAJBURIYATLARI

Veolia o'z xodimlari uchun moliyaviy masalalarda, xususan, o'z tajribasidan foydalanishda, o'z qadr-qimmatini baholashda va ulardan talab qilingan xatti-harakatlarda etika qoidalariga rioya qilishlarini muhim deb biladi. Bu nafaqat jinoiy xavfning oldini olish, balki korxonaning barqarorligi uchun muhim bo'lgan sheriklarining ishonchini ta'minlash masalasidir.

MAXFIYLIK

Veolia Guruh ichida va shartnomalarini bajarishda o'z faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar, nou-xau, intellektual va sanoat mulki huquqlari, va biznes sirlaridan foydalanishda maxfiylikni ta'minlashga intiladi.

XAVFSIZLIK

Veolia insonlar va aktivlarning xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yadi. Butun dunyo bo'ylab Guruh o'z xodimlarini o'z vazifalari doirasida himoya qilishni ta'minlash vositalarini, shuningdek o'z ob'ektlari, inshootlari va nomoddiy merosini himoya qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyatini oladi. Xuddi shunday, u o'z nomi va obro'siga putur yetkazmaslikka doimiy e'tibor beradi.

BIZNING BOSHQARISH QOIDALARIMIZ

XUSHYORLIK QONUNI

Veolia uchun yana bir cheklovchi tizim 2017 yil 27 martdagi asosiy kompaniyalar va buyurtmachi kompaniyalarning hushyorlik burchi bilan bog'liq qonundan kelib chiqadi. Kompaniyalarning qat'iy huquqiy mustaqilligidan tashqari, qonun chiqaruvchi ma'lum operatorlarni bog'laydigan iqtisodiy qaramlikni ham hisobga olishni xohladi. Shunday qilib, Veolia o'z faoliyati uchun ham, bevosita yoki bilvosita nazorat qiladigan faoliyatlari uchun ham, shuningdek, o'rnatilgan tijorat munosabatlarida bo'lgan subpudratchilar yoki yetkazib beruvchilarning faoliyati uchun ham fuqarolik javobgarligiga tortilishi mumkin.

Veolia qonunga muvofiq, inson huquqlari va asosiy erkinliklari, odamlarning salomatligi va xavfsizligi, shuningdek, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazishdan himoya qilish uchun oqilona choralarini o'z ichiga olgan hushyorlik rejasini ishlab chiqdi.

Hushyorlik rejasiga kiritilgan chora-tadbirlar, asosan, ushbu qo'llanmada Korporativ ijtimoiy javobgarlikni aks ettiruvchi qadriyatlarining turiligi bo'lganligi sababli, ushbu qadriyatlar mustahkamlangan bo'lib, barchani ularni qat'iy hurmat qilishga majbur qiladi.

Ogohlantirish va hushyorlik hisobotlarini yig'ish mexanizmi ushbu qo'llanmada keltirilgan etik tamoyillarga qo'shimcha bo'lganligi sababli, Etika Qo'mitasi Veolia etika doirasida ogohlantirishlarni qabul qiluvchi tizim hisoblanadi.



BIZNIG HARAKAT-LARIMIZ

Guruhning operatsion bo'linmalari Veolia kompaniyasini ifodalaydi va shu sababli ushbu qo'llanmada bayon etilgan qadriyatlarni barcha manfaatdor tomonlar (xodimlar, mijozlar va manfaatdor shaxslar bilan xizmatlar, joylardagi mahalliy aholi, tegishli manfaatdor mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati vakillari, birlashmalar, iste'molchilar va atrof-muhit muhofazasi va boshqalar...) tomonidan hurmat qilish va xulq-atvor qoidalarini qo'llash bilan shug'ullanadi.

XODIMLAR

Ayollar va erkaklar ijtimoiy, ekologik va operatsion mukammallikni boshqaradi

Bizning xodimlarimiz har kuni kompaniyamizning atrof-muhit va shahar muammolarini hal qilishadi va shu bilan Guruhimiz muvaffaqiyatiga hissa qo'shadilar. Shuning uchun Veolia samarali va muvaffaqiyatli ijtimoiy modelni ishlab chiqish orqali, ularga professional va insoniy qoniqishga erishishlari uchun ishlaydi. Shu sababdan Veolia o'zining ijtimoiy faoliyatini to'rtta asosiy tamoyilga asoslashga intiladi : tenglik, birdamlik, xodimlarning ish bilan ta'minlanishi va profilaktika salomatligi va xavfsizligi.

Xilma-xillikni targ'ib qilish, kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik va ta'qib qilishni rad etish tamoyillariga muvofiq xodimlarning kundalik majburiyatlari uchun integratsiyalashgan, ko'rib chiqilgan va adolatli munosabatda bo'lish juda muhimdir.

Ijtimoiy adolat kafolati

Veolia har bir xodim o'z ish faoliyatini yaxshilashi uchun kompaniyaga nima olib kelishini yaxshiroq tushunib yetishiga intiladi.

Turli xil ishchi kuchi o'z faoliyati muvaffaqiyatining asosi ekanligiga ishonch hosil qilgan Veolia har bir shaxsning

BIZNING HARAKATLARIMIZ

« XODIMLARNING XILMA-XILLIGI – GURUHIY FAOLIYAT MUVAFFAQIYATNING ASOSIY POYDEVORI.. »

sa'y-harakatlari va hissalarini tan olishga va o'z loyihasi va qadriyatlarini o'z xodimlari bilan baham ko'rishga intiladi. Shunda ular o'zlarini korxonada ishini bir qismi deb his qiladilar.

Xilma-xillikni targ'ib qilish, kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik va ta'qib qilishni rad etish tamoyillariga muvofiq xodimlarning kundalik majburiyatlari uchun integratsiyalashgan, ko'rib chiqilgan va adolatli munosabatda bo'lish juda muhimdir.

Birdamlikni mustahkamlash

Veolia xodimlari o'z ishlarining tabiatiga ko'ra, guruh tashkil etilgan hududlarda erkaklar va ayollarning turmush sharoitlarini yaxshilashga faol hissa qo'shadilar. Veolia tabiiy ravishda birdamlikni butun

dunyo bo'ylab ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Ijtimoiy muloqotni rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, har bir shaxs kamolotiga qaratilayotgan e'tibor uning inson resurslarini boshqarishida muhim o'rin tutadi..

Xodimlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini rivojlantirish

Veolia xodimlarni o'z ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, ularni fikr almashish, innovatsiyalar va professional muammolarni hal qilishga undaydi. Xizmat ko'rsatuvchi kompaniyada xodimlarning tajribasi asosiy boylik hisoblanadi. Veolia kompaniyasining inson resurslarini boshqarishni kundan-kunga yaxshilashga intilishi xodimlarni faol kasbiy tayyorgarligi va martabasini oshirib borish siyosati bilan quvvatlanadi. Bu bizning kasblarimizning doimiy evolyutsiyasiga doimo yaxshiroq javob beradi.

Veolia o'z xodimlariga kasbiy faoliyati davomida tajriba almashishni yaxshilashga va rag'batlantiruvchi istiqbollarni taklif qilishga intiladi.

BIZNING HARAKATLARIMIZ

Profilaktika, salomatlik va xavfsizlik nuqtai nazaridan harakat qilish

Veolia mas'ul xodimlar va ijtimoiy sheriklarni yaqindan jalb qilish orqali har kuni profilaktika siyosatini yaxshilaydi.

Xalqaro mehnat offisining salomatlik va xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalariga asoslangan holda, bizning majburiyatimiz bu xodimlarimizning kundalik mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun tobora samaraliroq yechimlarni topib borishga asoslanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklarning oldini olish, menejerlarning vakolatlarini kengaytirish, xodimlar o'rtasida xabardorlikni oshirish, ish va hayot muvozanatini saqlash va boshqalar. Ularni Guruh ichida, xususan Xalqaro salomatlik va xavfsizlik bo'yicha har yili bo'lib o'tadigan haftalik davomida tarqatish maqsadida eng yaxshi tajribalar aniqlanadi.

Butun dunyo bo'ylab o'z missiyalarini bajarishda Veolia o'z xodimlarining xavfsizligi uchun zarur choralarini amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan, davlat organlari bilan hamkorlikda, Guruh o'zining ichki sayohat xavfsizligi tartib-qoidalari orqali xavfli hududlar va tadbirlarni aniqlaydi, bu esa kerak bo'lganda moslashtirilgan oldini olish va aralashuv choralari ko'rish uchun birlashtiradigan operatsion xaritani yaratadi.

XARIDORLAR VA XIZMATLARDAN FOYDALANUVCHILAR

Mijozlar bilan munosabatlarda Veolia birinchi navbatda o'zining qonuniy va shartnoma majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Normativ jihatdan tashqari, Guruh o'z mijozlari, davlat va xususiy korxonalari, shuningdek, unga ishonib topshirilgan xizmatlardan manfaatdor shaxslarning ehtiyojlari va umidlariga javob beradigan yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish majburiyatini oladi.

Veolia, xususan, o'z mijozlari va tegishli manfaatdor tomonlar bilan birgalikda barcha uchun muhim xizmatlardan foydalanishni yaxshilash maqsadida moslashtirilgan takliflarni ishlab chiqishga intiladi. Aktivlarning yaxlitligini saqlash va himoya qilish Guruh xizmatlari sifati va faoliyatining kafolati hisoblanadi.

BIZNING HARAKATLARIMIZ

« JAMIYAT QURILISHIDA FAOL ISHTIROK ETISH BARQAROR RIVOJLANISH SARI INTILISH »

YETKAZIB BERUVCHILAR VA XIZMAT KO'RSATUVCHILAR

Veolia amaldagi qoidalarga muvofiq yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni tanlashning ob'ektiv mezonlarini belgilaydi.

Ushbu mezonlar yetkazib beruvchilarning faoliyatiga, shuningdek, ularning Guruh tomonidan belgilangan qadriyatlarga, axloqiy va barqaror rivojlanish qoidalarga bo'lgan hurmatiga asoslanadi. Yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar nizomida ularning tanlovini tartibga soluvchi asosiy qadriyatlar qatoriga, xususan, majburiy mehnat yoki bolalar mehnatini ta'qiqlash kiradi.

Veolia o'z yetkazib beruvchilari, xizmat ko'rsatuvchi provayderlari va mijozlari bilan munosabatlarida davlat yoki xususiy mansabdor shaxslarning korrupsiyasiga qarshi kurashni birinchi o'ringa qo'yadi. Veolia o'z xodimlari faqat istisno asosida va o'z nomidan ma'naviy bo'lmagan va past qiymatga ega bo'lgan taklifnomalar yoki sovg'alarni taklif qilishlari yoki olishlari mumkinligiga alohida e'tibor beradi. Agar bu borada shubha bo'lsa, u hamkasblarini rahbarlari bilan bog'lanishga taklif qiladi. Va nihoyat, Veolia subpudratchilik va

tashqi kompaniyalardan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalarga, xususan, sog'liq va xavfsizlik nuqtai nazaridan rioya qilishga intiladi.

Tijoriy vositachidan foydalanganda, Veolia o'zining yaxlitligini ta'minlash uchun muayyan guruh tartib-qoidalariga rioya qiladi. Bu protsedura ushbu xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning tanlovini tasdiqlash, ularning missiyasi va standart shartnoma shakliga muvofiq haq to'lashini nazorat qilish, shuningdek, qat'iy qoidalarga muvofiq xizmatlarining haqiqiy ta'minlash imkonini beradi.

TASHKILOT

Atrof-muhitga ta'sirni boshqarish, har qanday xavflarni oldini olish va Ekologik boshqarish tizimini (EBT) joriy etish orqali o'qitish. Veolia o'z faoliyati yoki mijozlari faoliyati ta'sirida atrof-muhitga salbiy ta'sirini cheklash, sanoat, sog'liqni saqlash va ekologik ob'ektlardagi xavflarni oldini olish va kamaytirish uchun mo'ljallangan vositaga ega. Kengroq ma'noda o'z xodimlari va mijozlari o'rtasida atrof-muhit va salomatlikni muhofaza qilish bo'yicha ma'lumot berish va xabardorligini oshirish Guruh uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Veolia maxsus ta'lim yoki xabardorlik dasturlarini ishlab chiqadi.

BIZNING HARAKATLARIMIZ

Manfaatdor tomonlar bilan muloqot

Barqaror rivojlanish tarafdori bo'lgan jamiyatni qurishda faol ishtirok etish Veolia kompaniyasining turli manfaatdor tomonlari, xususan uning aralashuv joylari yaqinida yashovchi aholi, nodavlat tashkilotlar, yoki fuqarolik jamiyatining boshqa vakillari bilan muloqotini nazarda tutadi. Shuning uchun Veolia ushbu muloqotni mahalliy darajadan xalqaro darajaga qadar bog'lashga intiladi.

Homiylik

Hamkorlik Guruhning jamiyat oldidagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sadoqatini namoyish etadi. Bu barcha manfaatdor tomonlar bilan asosiy qadriyatlarini hurmat qilish asosida, hududlarni rivojlantirish va ularni yaxshilashni qo'llab-quvvatlash maqsadida munosabatlarni mustahkamlash vositasidir.

Veolia kompaniyasining hamkorlik bo'yicha majburiyatlari, xususan, maxsus qo'mitalar tomonidan ilg'or tajribalar asosida tekshirilgan va tasdiqlangan homiylik operatsiyalari shaklida amalga oshiriladi. Uning harakatlari mahalliy tashabbuslar bilan operatsion tuzilmalar darajasida amalga oshiriladi.

Vasiylik

Veolianiing birdamlik vasiylik harakatlari asosan Veolia korporativ jamg'armasi doirasida birlashtirilgan va muvofiqlashtirilgan bo'lib, u istisnolarga qarshi kurash va atrof-muhitni muhofaza qilishning uchta ustuvor yo'nalishi bo'yicha umumiy manfaatlarga ega bo'lgan notijorat harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi :

- suvdan foydalanish, energiyani boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash uchun favqulodda gumanitar yordam va rivojlanish yordami ;
- ijtimoiy aloqalar va bandlikni qo'llab-quvvatlash ;
- atrof-muhit va biologik xilma -xillikni muhofaza qilish.

AKSIYADORLAR VA INVESTORLAR

Boshqaruv, moliyaviy etika va Frantsiya fond bozori qoidalariga rioya qilish

Veolia, birjada ruyhatdan o'tgan kompaniya sifatida ish yuritib, *AFEP/MEDEF** (*Frantsiya xususiy korxonalar assotsiatsiyasi /Frantsiya ishbilarmonlik harakati 1998 yilda yaratilgan*) Korporativ boshqaruv kodeksiga amal qiladi va unga ko'ra Direktorlar Kengashi, uning qo'mitalari (jumladan, Buxgalteriya va Audit Qo'mitasi) tarkibi va faoliyatini tartibga soluvchi tamoyillarni belgilab beradi va korporativ ijro etuvchi mansabdor shaxslar va direktorlar kengashi a'zolarini saylash, shuningdek aksiyadorlar va ushbu sohadagi bozorlarga taqdim etilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni belgilab beradi.

Bundan tashqari, Guruh moliyaviy menejerlar uchun odob-axloq kodeksini qabul qildi, unda moliyaviy va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini ko'rib chiqish uchun mas'ul bo'lgan menejerlarga nisbatan qo'llaniladigan halollik qoidalarini belgilangan va ularga halollik, mehnatsevarlik, ichki moliyaviy aloqada monitoring nazorat va boshqalar bo'yicha aniq majburiyatlarni yuklashga harakat qiladi.

Veolia, shuningdek, insayder savdosi yoki noto'g'ri xatti-harakatlar bilan bog'liq fond bozori qonunlarini buzish xavfini bartaraf etishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bilan muomala qilish bo'yicha axloq kodeksini ham joriy qildi. Ushbu kod menejerlar va xodimlarga o'zlarida bo'lgan har qanday imtiyozli ma'lumotlarni maxfiy saqlash va ushbu ma'lumotlar bozorlarga oshkor qilinmaguncha Veolia aksiyalari bo'yicha har qanday bitimdan saqlanish majburiyatlarini eslatib turadi. Veolia vaqti-vaqti bilan insayderlar ro'yxatini tuzish orqali imtiyozli ma'lumotlarga ega bo'lgan menejerlar va xodimlar tomonidan ushbu xulq-atvor kodeksi qoidalariga rioya etilishini ta'minlashga intiladi.

Veolia frantsuz fond birjasi qoidalariga mos keladi; shu nuqtai nazardan, u o'zining barcha advokatlariga, ichki yoki tashqi maslahatchilariga nisbatan qo'llaniladigan xulq-atvor va hushyorlik qoidalarini rasmiylashtirgan.

BIZNING HARAKATLARIMIZ

Bozorlar bilan aloqa

Ichki moliyaviy nazorat tashkilotning buxgalteriya hisobi to'g'ri va haqqoniy yuritilishiga, tranzaksiyalarga muntazam ruxsat berilishiga, firibgarlik yoki ruxsat etilmagan operatsiyalarga yo'l qo'ymaslik uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshirishga va shu tariqa Guruhning konsolidatsiyalangan operatsiyalari to'g'risida noto'g'ri moliyaviy hisobotlar, yoki noto'g'ri hisobot berishning oldini olishga qaratilgan.

Moliyaviy aloqalar Veolia kompaniyasida katta e'tibor mavzusi bo'lib, uning vazifalari yillik hisobotlarda aks ettiriladigan muhim ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlaydigan tartiblarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Umuman olganda, moliyaviy aloqalar Veolia ichidagi nazorat va belgilangan tartibga bo'ysunadi. U har kuni moliyaviy kommunikatsiyalar departamenti tomonidan boshqariladi.

U Bosh boshqaruv va Veolianing ushbu jarayonga jalb qilingan turli funksional bo'limlarini ko'rib chiqadi va muvofiqlashtiradi.

RAQOBATCHILAR

Guruh faoliyat yuritayotgan aksariyat mamlakatlarda erkin va yolg'on bo'lmagan raqobatni rivojlantirishga yordam beruvchi, raqobatni hurmat qilishga oid qonunlar qabul qilingan. Veolia o'zining barcha xodimlaridan *Raqobat to'g'risidagi qonunga rioya qilish bo'yicha qo'llanmaga* kiritilgan ushbu qoidalarga doimiy ravishda rioya qilishni ta'minlashni talab qiladi. Veolia, shuningdek, har bir xodimni raqobatbardoshlik huquqi nuqtai nazaridan qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashga va bu holda ularning operasion ierarxiyasi va kompaniya advokatlari bilan maslahatlashishga undaydi.

DAVLAT HOKIMIYATI

Veolia Guruhi davlat organlariga o'z tajribasini taqdim etgan holda, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat siyosatini ishlab chiqishga shaffof tarzda hissa qo'shadi. Ushbu vakillik faoliyati Guruh tomonidan o'rnatilgan ichki standartlarga muvofiq hamda mavjud milliy va milliy huquqiy me'yorlarga to'liq muvofiq ravishda tashkil etilgan. Veolia o'zining institutsional harakatlari orqali barcha manfaatdor tomonlarni o'z faoliyati sohasidagi qoidalar va davlat siyosatining ta'siri va oqibatlari haqida xabardor qilishga yordam beradi.



BIZNING TASHKILOT

O'zining qadriyatlari va xulq-atvor qoidalarini amalga oshirish uchun Guruh maxsus tashkilot va ichki tartib-qoidalarini o'rnatdi.

Ular yo'riqnomada muhokama qilingan turli bo'limlarga mos keladi va ichki aloqa va xabardorlik choralari, shuningdek, huquqiy va moliyaviy monitoring va nazorat qoidalariga bo'ysunadi.

ULAR TASHKILOT ATROFIDA TUZILGAN :

Etika Qo'mitasi

Ushbu Qo'mita « Veolia Environnement (Atrof-muhit) Ijroiya qo'mitasi tomonidan tayinlangan besh a'zodan iborat bo'lib, ular xodimlar, sobiq xodimlar, yoki mustaqillik va malakaning zarur kafolatlarini taklif qiluvchi tashqi shaxslar bo'lishi mumkin. Qo'mita a'zolari o'z missiyalarini mustaqil ravishda bajarishda Bosh boshqaruvdan to'g'ridan to'g'ri ko'rsatmalar ololmaydilar va to'rt yildan so'ng uzaytirilishi mumkin bo'lgan vakolatlaridan chaqirib olishlari mumkin emas.

Veolia Etika Qo'mitasi ushbu Etika bo'yicha qo'llanmada bayon etilgan va Guruh hamda uning barcha xodimlari rioya qiladigan asosiy qadriyatlarining to'g'ri bajarilishini ta'minlash uchun javobgardir.

Shunday qilib, Etika Qo'mitasining missiyasiga (vazifasiga) quyidagilar kiradi :

- Veolianing asosiy qadriyatlari va tamoyillariga taalluqli, yoki u ko'rib chiqadigan mavzular bo'yicha, yoki unga beriladigan quyidagi savollar bo'yicha har qanday tavsiyalar berish ;

« ETIKA QO'MITASIGA MAXSUS VEOLIA ETIKA OGOHLANTIRISH PLATFORMASI ORQALI MUROJAAT QILISH IMKONIYATI »

- mahalliy sharoitga qarab, barcha guruh xodimlari tomonidan axloqiy yo'riqnomaning tarqalishi va yaxshi tushunilishini ta'minlash ;
- Etika qo'llanmasiga qo'shimchalar yoki tuzatishlar kiritishni taklif qilish
- Ijroiya qo'mitasi va Veolia kompaniyalarining e'tiborini kasbiy xulq-atvorning etika qo'llanmasi tomonidan ilgari surilgan qadriyatlar va tamoyillarga zaruriy muvofiqligiga qaratish.
- Veolia guruhining qadriyatlari va etika qo'llanmasi xulq-atvor qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlar to'g'risidagi da'volar haqida manfaatdor shaxslarga zarur hollarda xabar berish.

Etika Qo'mitasi o'z vazifalari doirasida Guruh tarkibiga kiruvchi kompaniyalarning xilma-xilligini, ularning faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini va ular tashkil etilgan mamlakatlarning huquqiy, me'yoriy va ijtimoiy asoslarini hisobga olgan holda Etika bo'yicha qo'llanmani sharhlaydi.

Etika Qo'mitasiga Fransiyada ham, xorijda ham Veolia kompaniyalariga nisbatan o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha vakolatlar berilgan ; Shunday qilib, u foydali hujjatlarga ega bo'lishi va Guruhning har qanday xodimi, uning auditorlari va har qanday uchinchi shaxsni eshitishi mumkin.

O'z missiyasini bajarishda u Veolia ichki audit bo'limiga tayanadi, Etika Qo'mita etika qo'llanmasiga tegishli har qanday savolga aralashishni so'rashi mumkin. Shuningdek, u tashqi ekspertlar xizmatlaridan foydalanishi va har qanday guruh kompaniyasining istalgan saytiga tashrif buyurishi mumkin. U har yili Veolia Atrof muhitni muxofaza qilish direktorlar kengashiga o'z harakatlari haqida hisobot beradi.

«Etika bo'yicha muxbirlik» tarmog'i

Qo'mita «Etika bo'yicha muxbirlik» tarmog'iga ega bo'lib, ularning har qaysi mamlakatlarda direktori ishlaydi va u bilan hamkorlikda Guruhning etika siyosatini amalga oshirishda mahalliy miqyosda ishtirok etadi.

BIZNING TASHKILOT

Guruhni ogohlantirish huquqi

Ushbu qo'llanmada ko'rsatilgan etika xulq-atvor qoidalariga rioya qilmaslikda gumoni bo'lsa va bu haqda o'z rahbariga xabar berish maqsadga muvofiq emas deb hisoblagan, yoki undan olingan javobdan qoniqmagani har qanday xodim mustaqil xizmat ko'rsatuvchi organ - Etika Qo'mitasiga bu maqsadga bag'ishlangan Veolia Etika platformasi orqali murojaat qilish imkoniyatiga ega. Bunday yo'llanma xodim yashaydigan va/yoki faoliyat yuritayotgan mamlakatda amaldagi qonunlar va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Quyidagi sohalarga to'g'ri keladigan ogohlantirishlar haqida (korruptsiya, ta'sir o'tkazish, raqobatga qarshi amaliyotlar, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish, inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) Etika Qo'mitasiga xabar beriladi. U esa o'z navbatida ularni Guruhning Muvofiqlik bo'limiga topshiradi. Xabar olinganligini tasdiqlaganidan so'ng, ishning borishi to'g'risida xabarni yetkazgan shaxsga hisobot berib, ularning qayta ishlanishini ta'minlaydi, so'ngra uni ish jarayoni yopilganligi haqida xabardor qiladi.

Boshqa ogohlantirishlar Etika Qo'mitasi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki unga bevosita hisobot beradigan mamlakat vakillari orqali amalga oshiriladi.

Veolia, Etika Qo'mitasi kabi, xodimlar, ishtirok etgan shaxslar va ogohlantirish kontekstida da'vo qilingan faktlar haqidagi ma'lumotlarning to'liq maxfiyligini kafolatlaydi.

Xuddi shunday, Veolia hech bir xodim ogohlantirish huquqidan foydalanganligi tufayli har qanday shaklda, xususan, ta'qib qilish, yoki boshqa qasos olish harakatlarida kamsitishlarga duchor bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi.

Veolia ichida ma'lumot tarqatish huquqidan foydalanish to'g'risidagi nizom xodimlarga taqdim etiladi. Yuqoridagi qoidalar, Guruh qadriyatlarining buzilishi haqida xabar berishni istagan kompaniyaning uchinchi shaxslariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Xodimlar va kompaniyaning uchinchi shaxslari korruptsiya yoki mansabdani foydalanish orqali ta'sir ko'rsatadigan harakatlar yuzaga kelganini sezib qolsalar, Etika Qo'mitasiga bunday faktlar uchun to'g'ridan-to'g'ri Whispli platformasi orqali, etika elektron pochta (ethique.ve@veolia.com) orqali, yoki jamiyat tashkil etilgan mamlakatlardagi ishonch telefoni orqali murojaat qilishlari mumkin.

Guruh tomonidan chop etilgan *Korruptsiyaga qarshi etika nizomi* ushbu qo'llanmaga ilova hisoblanadi.

Suratlar manbalari :

Médiathèque Veolia - Salah Benacer, Alexandre Dupeyron, Olivier Guerrin, Stéphane Lavoué,
Christophe Majani d'Inguibert, Jonathan Robert. OJO Images/Matton, Onoky/Matton, PhotoAlto, GettyImages.

Nashr etildi :

2023 yil sentyabr oyi

Dunyoni resurslarga boyitish

Veolia Atrof-muhit

Ma'muriy manzil

30, rue Madeleine Vionnet - 93300 Aubervilliers - France

Bosh ofisi

21, rue de la Boétie - 75008 Paris - France

www.veolia.com